

afzalliklarini kuchaytirish hamda riskga asoslangan nazorat va Basel standartlariga mos kapital siyosatini chuqurlashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Tangishov, M.R. (2023) Tijorat banklarining innovatsion faoliyatini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.*
2. *Maksudov, B.A. (2023) Tijorat banklarining muammoli aktivlarini qisqartirish yo'llari. Avtoreferat. Toshkent.*
3. *Malikova, D.M. (2024) Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.*
4. *Toshpulatov, N. (2019) 'Bank riskini minimallashtirish strategiyalari', Moliya institutlari jurnali.*
5. *Rizoev, B. (2020) Moliyaviy bozorlar va bank riski: o'zaro aloqa. Toshkent: Moliya tadqiqotlari.*
6. *Sindarov, F.Q. (2024) 'O'zbekiston bank sektoridagi tizimli muammolar va islohotlar samaradorligi', "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, XI son, Noyabr, 2024, 297-305 -betlar.*
7. <https://cbu.uz>
8. <https://new.openinfo.uz>

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ NAZORATINING O'RNINI VA AHAMIYATI

Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Moliyaviy savodxonlik zamonaviy jamiyatda shaxsiy moliya boshqaruvi, iqtisodiy barqarorlik va davlatning budjet siyosatini samarali amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan aholida soliq to'lovlari intizomsiz amalga oshiriladi, bu esa budjet tushumlarining barqarorligini pasaytiradi va davlatning iqtisodiy siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shunga ko'ra, soliq nazorati tizimi nafaqat soliq tushumlarini yig'ish mexanizmi sifatida, balki aholining moliyaviy bilim va ongini oshirish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimining samaradorligini oshirish, aholining soliq madaniyatini shakllantirish va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan "Aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida soliq to'lash madaniyatini yuksaltirish, mazkur jarayonlarda mahalla institutining faol ishtirokini rag'batlantirish hamda soliq organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini va faoliyatining ochiqligini yanada oshirish"

asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan.¹⁴ Shuningdek, soliq to'lovchilar bilan ishlashning yangi mexanizmlari, raqamlashtirilgan monitoring tizimlari va elektron xizmatlar joriy etilmoqda. Bu esa nafaqat soliq to'lovchilar bilan bevosita muloqot jarayonini soddalashtiradi, balki ularning moliyaviy savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va soliq nazorati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, uning samaradorligini tahlil qilish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik va soliq nazorati o'rtasidagi bog'liqlik jahon amaliyotida ham keng o'rganilgan. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan "Soliq madaniyati – bu soliq to'lash istagi yoki insonlarning soliqqa bo'lgan ichki motivatsiyasi bo'lib, soliqqa bo'lgan ishonch, ta'lim darajasi va moliyaviy bilimi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ko'proq uchraydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliqqa bo'lgan ijobiy munosabat va samarali soliq ma'muriyati soliq to'lovchilarning soliq majburiyatini bajarish darajasini oshiradi. Bu yondashuv soliq nazorati va ta'lim (shu jumladan moliyaviy savodxonlik)ni birlashtirgan holda ishlaydi hamda soliqlarni to'lash madaniyatini shakllantiradi." –deb ta'kidlangan.

Torgler soliq madaniyati tushunchasini insonlarning ichki normativ hamda ijtimoiy xulq-atvoriga bog'lab tushuntiradi. Uning fikricha "Soliq to'lovchilarning soliqqa bo'lgan ijobiy qarashlari, ularning moliyaviy bilimi va soliq tizimi to'g'risida xabardorligi yuqori bo'lsa, ular soliq compliance darajasi ham yuqori bo'ladi. Bu esa soliq nazorati samaradorligini oshiradi, chunki soliq to'lovchi nazoratsiz ham to'laydi".¹⁵

E. Kirchler "Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchilar ishonchi ("trust") va soliq nazorati ("power") o'rtasidagi uyg'unlik soliq madaniyatini shakllantiradi. Agar soliq organlari xodimlari hurmatli bo'lib, soliq to'lovchilarni xabardor qilsalar, soliq madaniyati oshadi va bu moliyaviy savodxonlik bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, qattiq nazorat ham mustahkam soliq intizomiga yordam beradi." – degan fikrlarni ilgari surgan.¹⁶

Rivojlangan davlatlarda soliq nazorati tizimi aholining moliyaviy xulqini shakllantirishda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, soliq nazorati nafaqat davlat byudjetini to'ldirish, balki aholining moliyaviy ongini rivojlantirish, soliqlarni to'lashda mas'uliyatni oshirish va noqonuniy faoliyatni kamaytirishda samarali vosita bo'la oladi.

Shuningdek, soliq nazorati tizimi orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir qiladi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi PQ-364-son "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

¹⁵ Torgler, B. (2007). *Tax Compliance and Tax Morale: A Theoretical and Empirical Analysis*. Cheltenham, UK & Northampton, MA: Edward Elgar Publishing.

¹⁶ Kirchler, E., Hoelzl, E., & Wahl, I. (2008). Enforced versus voluntary tax compliance: The "slippery slope" framework. *Journal of Economic Psychology*, 29(2), 210–225.

O'zbekiston sharoitida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, soliq to'lovlarida intizomni mustahkamlash va budjet tushumlarini barqarorlashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Xususan, soliq organlari tomonidan soliq qonunchiligi yuzasidan olib boriladigan targ'ibot ishlari, seminar va treninglar yoki taqdim etilayotgan elektron xizmatlar, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyasi¹⁷ orqali soliq to'lovchilarga berilayotgan maslahatlar aynan shu vazifani amalga oshirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda soliq nazoratining roli faqat nazorat va jazolash vositasi bilan cheklanmaydi. U o'quvchi, yetakchi va konsultant sifatida ham ishlaydi. Ya'ni soliq organlari orqali beriladigan ma'lumotlar, tushuntirish ishlari va tavsiyalar aholida moliyaviy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashni rag'batlantiradi, budjet tushumlarining prognozli va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, soliq nazorati samaradorligini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Bunda quyidagi tamoyillar asosiy ahamiyatga ega:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish – aholiga soliqlar va moliyaviy boshqaruv bo'yicha bilim berish, seminar va elektron kurslar orqali ularning tushunchasini kengaytirish;

2. Soliq nazoratini optimallashtirish – nazorat mexanizmlarini samarali, shaffof va adolatli qilish, jazolash bilan bir qatorda tushuntirishni kuchaytirish;

3. Ijtimoiy ishonch va rag'batlantirish – soliqqa rioya etgan shaxslarni rag'batlantirish, jamoatchilik ishonchini oshirish;

4. Raqamlashtirish va monitoring – elektron xizmatlar va interaktiv platformalar orqali soliq jarayonini osonlashtirish va aholining faolligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda soliq to'lovchilarning soliq madaniyati shakllanganlik darajasi bilan soliq organi tomonidan o'tkaziladigan soliq nazorati tadbirlarining uzviy bog'liqlik mavjud. Ya'ni soliq madaniyatining shakllanganlik darajasi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarda soliq organlari tomonidan soliq nazorati tadbirlari kamroq va aksincha, soliq madaniyatining shakllanganlik darajasi past bo'lgan soliq to'lovchilarda esa soliq organlari tomonidan soliq nazorati tadbirlari ko'proq tashkil etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi PQ-364-son "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2. OECD (2019). *Tax Morale: What Drives People and Businesses to Pay Tax?*. Organisation for Economic Co-operation and Development Publishing, DOI: https://www.oecd.org/en/publications/tax-morale_f3d8ea10-en.html

¹⁷ Soliq qo'mitasi rasmiy veb-saytida va "Soliq xizmatlari" mobil ilovasida joriy etilgan "Davr-On" sun'iy intellekt texnologiyasi – assistant. <https://www.gov.uz/oz/soliq>.

3. Torgler, B. (2007). *Tax Compliance and Tax Morale: A Theoretical and Empirical Analysis*. Cheltenham, UK & Northampton, MA: Edward Elgar Publishing.

4. Kirchler, E., Hoelzl, E., & Wahl, I. (2008). *Enforced versus voluntary tax compliance: The “slippery slope” framework*. *Journal of Economic Psychology*, 29(2), 210–225.

5. Soliq qo‘mitasi rasmiy veb-saytida va “Soliq xizmatlari” mobil ilovasida joriy etilgan “Davr-On” sun‘iy intellekt texnologiyasi – assistant. <https://www.gov.uz/oz/soliq>.

O‘RTA OSIYO DAVLATLARIDA INNOVATSIYON FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISH MASALALARI

Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

*I.f.f.d (PhD), iqtisodiyot kafedrasi dotsenti,
Namangan davlat texnika universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyo mamlakatlarida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish masalalari, mavjud mexanizmlar, ularning samaradorligi hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi, xususiy investitsiyalar, grantlar va venchur moliyalashtirishning innovatsion rivojlanishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, mintaqa mamlakatlari misolida innovatsiyani rag‘batlantirish ko‘rsatkichlari taqqoslanadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, moliyaviy rag‘batlantirish, grantlar, venchur kapital, O‘rta Osiyo, investitsiya.

Globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘rta Osiyo mamlakatlari (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston) uchun innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va barqaror o‘sishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsiyani moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Innovatsiyalarni moliyalashtirish masalalari bo‘yicha jahon va mintaqaviy miqyosda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. J. Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholagan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda davlat va xususiy sektor hamkorligining innovatsion jarayonlardagi roli keng yoritilgan. Jahon banki va OECD hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyani qo‘llab-quvvatlashda grantlar, soliq imtiyozlari va venchur kapitalning ahamiyati alohida ta‘kidlanadi.

O‘rta Osiyo mamlakatlari bo‘yicha tadqiqotlarda esa innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, moliyaviy resurslarga kirish